

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
PAREMALARDA GASTRONOMIK BIRLIKLARNING
O'RGANILISHI

Raxmatilloyeva Feruza Nematilloyevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada gastronomiyaga oid leksik birliklarning o'zbek xalq maqollarida aks etishi va ularning tahliliga oid bo'lgan qarashlar aks etgan. Oziq-ovqat nomlariga asoslangan o'zbek xalq maqollari o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat nomlari, gastronomiya, mavzuviy guruhlar, un va dondan tayyorlanadigan mahsulotlarga asoslangan maqollar.

STUDY OF GASTRONOMIC UNITS IN PAREMA

Abstract. This article reflects views on the reflection of gastronomy lexical units in Uzbek proverbs and their analysis. Uzbek proverbs based on food names were studied.

Key words: food names, gastronomy, thematic groups.

ИЗУЧЕНИЕ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПАРЕМЕ

Абстрактный. В данной статье отражены взгляды на отражение гастрономических лексических единиц в узбекских народных пословицах и их анализ. Изучены узбекские народные пословицы, основанные на названиях продуктов питания.

Ключевые слова: названия продуктов питания, гастрономия, тематические группы.

Milliy-madaniy xususiyatlarni o'r ganish va saqlash masalalari tobora dolzarb bo'lib borayotgan hozirgi davrda xalq og'zaki ijodi namunalarini tadqiq etish muhim masala sifatida maydonga chiqadi. Xalq og'zaki ijodining sermahsul

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

turi bo‘lgan maqolni qanchalik keng o‘rganar ekanmiz, uning shunchalik o‘rganilmagan qirralari mavjud ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Shu bois ham Sharq xalqlari maqolni “til jilosi” («цветом языка»), “ochilmagan marvaridlar” («ненанизанными жемчужинами»), yunon-rimliklar («господствующими мнениями»), “ustun fiklar”, italiyaliklar “xalq maktabi” («училищем народа») ispanlar “ruhni davolovchi” («врачеством души»), nemislar – “ko‘cha donoligi” («уличной мудростью») kabi nomlar bilan ifodalaydilar.¹ O‘zbek tilshunosligida bevosita maqollarning ilmiy tadqiqi Xoliq Abdurahmonov, Muyassar Sadriddinova, Anvar Omonturdiyev, Bibish Jo‘rayeva, Zulkumor Xolmanova, Dildora Tosheva, Iqboljon Mirzaaliyev, Dilfuza Turdaliyeva, Shuhrat Qalandarov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida maqollarning mavzuviy guruhlar bo‘yicha taqsimlab o‘rganish professor B.M.Jo‘rayevaning “O‘zbek xalq maqollari shakllanishing lingistik asoslari va pragmatik xususiyatlari” nomli doktorlik ishida aks etgan. Tadqiqotda oziq-ovqat nomlariga asoslangan o‘zbek xalq maqollariga ham qisman to‘xtalinilgan. Bu kabi maqollar:

- “Uy-ro‘zg‘or mahsulotlari nomi asosida shakllangan maqollar”. (Go‘sht olishni bilmayman, Yog‘-yog‘idan kesib ber. Bu maqol ayyor, mug‘ombir odamlarga nisbatan kinoya tarzida qo‘llanadi);
- Aralash, ya’ni uy-ro‘zg‘or buyumlari va mahsulotlari nomi asosida shakllangan maqollar. (Qoshiq bilan osh berib, Sopi bilan ko‘z chiqarma. Maqol: “Bir ishni qilaman deb, yangi bir tashvishni orttirma);
- Novvoylik asosida shakllangan maqollar. (Yetilmagan xamir tandirda turmas. Maqol: “Kishi hayotning achchiq-chuchugini totib ko‘rmasa, hayot... turtkisini, zARBASINI yemasa, ya’ni yetilmasa, kundalik turmushda uchraydigan ba’zi qiyinchiliklarga bardosh bera olmaydigan bo‘ladi)².
- O‘simlik nomlari asosida shakllangan maqollar;

¹ Майтиева Р.А. Структурно-семантическая характеристика пословиц и поговорок даргинского языка в сопоставлении с английским. Дис. ... канд. филол.наук. – Махачкала, 2011. – 167 с.

² Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – Б. 108.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- O‘t nomlari asosida shakllangan maqollar (shartli ravishda to‘rt guruhga:

- 1) umumiy “egin” leksemasi asosida shakllangan maqollar;
- 2) poliz ekinlari nomi asosida shakllangan maqollar.
- 3) sabzavot nomlari asosida shakllangan maqollar;
- 4) boshoqli o‘t nomlari³ kabi guruhlarga bo‘lib o‘rganilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, taom nomlarining qanday masalliplardan tayyorlanishi va shunga mos holda, ular turlarining har xil nomlar bilan atalishi, o‘ziga xosliklari, har bir davr va hudud aholisi tilida katta farqlarga ega. Bu o‘sha davr va hudud aholisi turmush tarzining, hududda yetishtiriladigan o‘simlik va hayvonot, ziroat turlarining xalq maishiy hayotiga ta’sirining va pirovardida ularning tiliga, xususan, taom nomlariga ta’sirining natijasi sifatida yuzaga chiqadi.⁴ Kuzatishlarimiz davomida o‘zbek xalqi taomnomasida qadimdan un va xamirdan (qanday undan tayyorlanishidan qat’iy nazar – bug‘doy, jo‘xori, arpa, tariq va sh.k. xamirlar nazarda tutiladi) tayyorlanadigan taom nomlari boshqa turlariga nisbatan ishlatilish salmog‘i va xillarining soni bo‘yicha asosiy o‘rinni egallaydi. Un va xamirdan tayyorlanadigan taomlar xilma-xildir:

- Undan tayyorlanadigan taom nomlari: bulamiq/atala kabi;
- Non mahsulotlari nomlari: o‘tmak, nan, patir, chalpak, qatlama, ko‘moch;
- Xamir ichiga masalliq solib tayyorlanadigan taom nomlari: manti,xonim,chuchvara;
- Xamirli suyuq taom nomlari: tutmoch (ugra osh), ushoq osh (ugra osh, tappa), umoch va hokazo.⁵

³ Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. доктори ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 237 б.

⁴ Насимова, Ф. (2023). Classification and Phonological Opposition of Vowels in French Language. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 36(36). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10102

⁵ Bafoevna, N. D. (2023). Theolinguistics in Modern Religious Discourse. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(3), 18-21.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Don va donli mahsulotlarga asoslanga o‘zbek xalq maqollariga to‘xtalar ekanmiz, ular o‘zbek xalqi taomnomasining yetakchi qismi ekanligiga guvoh bo‘lamiz:

- Bir boshoq don — bir savat non;
- Molini quritaman degan pul qilar, donini quritaman degan un qilar;
- Boylik ushoqdan yig'ilar;
- Don ayagan donga yetar, non ayagan — nonga;
- Ortib qolsa qozonda, isitib yersan azonda;
- Oshni ayasang — oshga, nonni ayasang — nonga;
- donni yiqqan donodir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, *oziq-ovqat asosida shakllangan xalq maqollarini* o‘rganish shu xalqning madaniyati, urf-odati, tili hamda ijtimoiy turmush tarzi bilan bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Bafoevna, N. D. (2023). Theolinguistics in Modern Religious Discourse. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(3), 18-21.
2. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. доктори ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 237 б.
3. Майтиева Р.А. Структурно-семантическая характеристика пословиц и поговорок даргинского языка в сопоставлении с английским. Дис. ... канд. филол.наук. – Махачкала, 2011. – 167 с.
4. Насимова, Ф. (2023). Classification and Phonological Opposition of Vowels in French Language. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 36(36).

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

извлечено

от

https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10102

5. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – Б. 108.